

ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR

VAZIRLIGI



ILMIY
AXBOROTNOMA

2024

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI

- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА
- SCIENTIFIC BULLETIN OF NAMANGAN STATE UNIVERSITY



journal.namdu.uz



Bosh muharrir:

p.f.d., prof., S.T. Turg'unov

Mas'ul muharrir:

PhD., dots., A.A. Rasulov

Mas'ul muharrir o'rinbosari:

PhD., dots., O.N. Imomov

TAHRIR HAY'ATI

| | |
|--|--|
| <u>Fizika-matematika fanlari:</u> | akad. S. Zaynobiddinov akad. A. A'zamov f-m.f.d., prof. B. Samatov f-m.f.d., dots. R. Xakimov f-m.f.d., dots. B. Abdulazizov f-m.f.n., dots. A. Xolboyev f-m.f.n., dots. R. Jalalov |
| <u>Biologiya fanlari:</u> | akad. K. Tojibayev akad. R. Sobirov b.f.d., prof. A. Batashov b.f.d., prof. N. Abdurahmonov b.f.d., prof. F. Kushanov b.f.d., prof. A. Kuchboyev b.f.d., dots. D. Dexqonov |
| <u>Texnika fanlari:</u> | t.f.d., prof. A. Umarov t.f.d., prof. S. Yunusov |
| <u>Tarix fanlari:</u> | akad. A. Asqarov s.f.d., prof. T. Fayzullayev s.f.d., prof. N.B. Dexkanov t.f.d., prof. A. Rasulov |
| <u>Falsafa fanlari:</u> | f.f.d., prof. M. Ismoilov f.f.d. dots. Z. Isaqova f.f.d., G. G'afarova p.f.d., dots. T. Ismoilov PhD. A. Abdullayev |
| <u>Pedagogika fanlari:</u> | p.f.d., prof. U. Inoyatov p.f.d., prof. B. Xodjayev p.f.d., prof. O'. Asqarova p.f.n., dots. M. Nishonov p.f.n., dots. A. Sattarov p.f.n., dots. M. Asqarova p.f.n., dots. Sh. Xo'jamberdiyeva p.f.d., dots. S. Abdullayev PhD., dots. D. Sarimsakova PhD., B. Urinov |

Texnik muharrir:

S. Xoshimov

Tahririyat manzili:

Boburshox ko'chasi, 161-uy

Kimyo fanlari:

akad. S. Nigmatov
k.f.d., prof. Sh. Abdullayev
t.f.d., v.b. prof. G'. Doliyev
k.f.n., dots. T. Sattarov
k.f.n., dots. A. Hurmamatov
PhD., dots. D.S. Xolmatov

Filologiya fanlari:

fil.f.d., prof. N. Uluqov
fil.f.d., prof. H. Usmanova
PhD. H. Solixo'jayeva
PhD. dots. U. Qo'ziyev
PhD. H. Sarimsoqov
fil.f.d., N. Dosbayeva

Oishloq xo'jaligi fanlari:

g.f.d., prof. B. Kamalov
q-x.f.n., dots. A. Qazaqov

Geografiya fanlari:

g.f.d., dots. B. Kamalov
g.f.d., prof. A. Nigmatov
g.f.d., dots. A. Nazarov

Iqtisodiyot fanlari:

i.f.d., prof. N. Maxmudov
i.f.d., prof. O. Odilov

Tibbiyot fanlari:

b.f.d., prof. G'. Abdullayev
tib.f.n., dots. S. Boltaboyev

Psixologiya fanlari:

p.f.d., prof. Z. Nishanova
p.f.n., dots. M. Maxsudova

Rasmiy web sahifa:



journal.namdu.uz

Faks: (0369)227-07-61

e-mail: science@namdu.uz

Ushbu jurnal 2019-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosati qarori bilan fizika-matematika, kimyo, biologiya, falsafa, filologiya va pedagogika fanlari bo'yicha Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"NamDU ilmiy axborotnomasi – Научный вестник НамДУ" jurnali O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining 17.05.2016-yildagi 08-0075 -raqamli guvohnomasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA) tomonidan 2020-yil 29-avgust kuni 1106-sonli guvohnomaga binoan chop etiladi. "NamDU Ilmiy Axborotnomasi" elektron nashr sifatida xalqaro standart turkum raqami (ISSN-2181-1458) ga ega. NamDU Muvofiqshartiruvchi Kengashining 2024-yil 22-iyuldagi 6-sonli yig'ilishida muhokama qilinib, ilmiy to'plam sifatida chop etishga ruxsat etilgan (Bayonnoma № 6). Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-7]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Navro'zova Gulchehra Ne'matovna

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti
"Ijtimoiy fanlar" kafedrası professori, falsafa fanlari doktori
email: premium.progress@mail.ru

XOJA AHROR TA'LIMOTIDA INSON MOHIYATI: QIYOSIY-FALSAFIY TAHLIL

Annotatsiya: Maqolada Naqshbandiya ta'limotini jahoniy darajada yuksalishida xizmat qilgan mutasavvif Xoja Ahror Valiyning risolalari va "Rashahot" asaridagi rashhalarining falsafiy tahlili asosida inson mohiyati "jam' etuvchi borliq" sifatida tavsiflangan va Abdulqodir Giyloniyning shu mavzudagi fikrlari bilan qiyoslangan.

Kalit so'zlar: Inson, inson borlig'i, Kichik Olam, Katta Olam, jam' etuvchi borliq, insoniylik.

Наврозова Гульчехра Нематовна

Бухарский инженерно-технологический институт,
профессор кафедры «Социальные науки», доктор философских наук

ЧЕЛОВЕЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ В УЧЕНИИ ХОДЖА АХРАРА: СРАВНИТЕЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация: В статье, основанной на философском анализе трактатов Ходжи Ахрора Вали, мистика, послужившего становлению учения Накшбандия на мировом уровне, и его очерков в труде «Рашахот», сущность человека заключается в описан как «объединяющее существо» и сравнен с мыслями Абдула Кадира Гилани на эту тему.

Ключевые слова: Человек, человеческое существование, Малая Вселенная, Большая Вселенная, коллективное существо, человечество.

Navro'zova Gulchehra Ne'matovna

Bukhara Institute of Engineering and Technology,
Professor of the Department of "Social Sciences", Doctor of Philosophy

HUMAN ESSENCE IN THE TEACHING OF KHOJA AHRAR: A COMPARATIVE-PHILOSOPHICAL ANALYSIS

Abstract: The article, based on the philosophical analysis of the treatises of Khoja Akhror Vali, a mystic who contributed to the establishment of the teachings of Naqshbandiy at the global level, and his essays in the work "Rashahot", examines the essence of man. described as a "unifying being" and compared to Abdul Qadir Gilani's thoughts on the topic.

Key words: Man, human existence, Small Universe, Big Universe, collective being, humanity.

Kirish. Mustaqillik davrida falsafa fanining asosiy kategoriyalari yangicha yondashuvlar asosida tahlil etilmoqda. Hozirgi kun falsafasi inson muammosiga maxsus e'tibor bermoqda. Tasavvuf falsafasi namoyandalarining insonga oid qarashlari manbalar asosida o'rganilmoqda. Xoja Ahror Valiy Bahouddin Naqshband asoslagan Naqshbandiya ta'limotini jahoniy darajaga yoyilishiga sababchi bo'lgan mutafakkir sifatida ma'lum va mashhurdir. Mustaqillik davrida bu ulug' zotning hayot yo'li va ta'limoti falsafiy tahlil etilmoqda[1,2,3]. Uning asarlarida inson, insoniylik va insoniy haqiqat tushunchalariga maxsus e'tibor berilgan. Bu tushuncha ayniqsa uning risolalarida jamlangan[4].

Inson mohiyati Xoja Ahror Valiyning asosiy asari bo'lgan "Fiqroti Ahroriya"da yoritilgan. "Fiqroti Ahroriya" "Faqarotu-l-orifiyn"[5:24-25] nomi bilan ham ma'lum. "Rashahot"[6] asarida uning hikmatli so'zlari jamlangan bo'lib, ularda inson tushunchasining mazmun-mohiyati yoritilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Insonda o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini nazorat etish, o'z-o'zidan hisob olish muntazam davom etadigan jarayon bo'lganida inson me'yorda yashaydi. "Rashahot" asarining Xoja Ahror Valiy rashhalari to'plangan ikkinchi maqsadining ikkinchi faslida u kishi aytgan 14-rashha keltirilgan. Unda insonga quyidagicha ta'rif berilgan: "Odami nusxai jomi'a turur,

ondog'kim, malakiy sifatлари bor turur va sab'iy va bahimiy sifatlardan ham xoliy ermastur"[6:344]. Xoja Ahror Valiy bu iboralari bilan insonda ham malakiy, farishtalarga xos sifatlar mavjud, shu bilan birga yirtqich va boshqa to'rt oyoqli hayvonlar kabi nafs illatlari ham borligini ta'kidlab, insonni "nusxai jami", ya'ni borliqdagi bor narsalarni o'zida jam' etgan nusxa demoqdalar.

Xoja Ahror Valiyning insonni "jam' etuvchi borliq" sifatida ta'riflashi Qodiriya tasavvufiy ta'limotining asoschisi Abdulqodir Giyloniyni fikriga uyg'undir. Abdulqodir Giyloni insonda butun borliqda bor bo'lgan hamma maxluqot mavjuddir degan g'oyani ilgari surganlar. U kishining asarlarida insonni jam' etuvchi borliq sifatida ta'riflanishini Gulandom Yunusova o'z maqolasida[7:23-25] tahlil etgan. Abdulqodir Giyloni insonni shunday ta'riflaydi: "Inson Haqqning oynasi bo'lib, ham jamol, ham jalol sifatini aks ettirmoqda. Butun koinot yaratilayotganda (bu oyna) to'plangandir. Yana bu hikmatga manba bo'lib, "jam' etuvchi borliq" va "ulug' olam" nomi insonga berildi"[8:97]. Giyloni insonga "jam' etuvchi borliq" yoki "ulug' olam" deb ta'rif berish bilan inson borlig'i butun borliqning kichraytirilgan nusxasi degan g'oyani ilgari suradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Insonning asl siri shundaki, uning tanasi, zohiri Kichik Olamday ko'rinsa-da, lekin botini, ruhiy tomoni ilohiy sir bo'lib, inson butun borliqni o'zida aks ettiradi va botinan Katta Olam bo'ladi. Shuning uchun ham inson butun borliqni bilish uchun avvalo o'zining ikki jihatini ham chuqur o'rganishi lozim. Inson boshqa (yaratilmishlarning) xiloficha butun ismlarning zuhurot joyidir. Insondan o'zga maxluqu ashyo bir jihatli (o'laroq) yaratilgandir. Inson o'zida koinotning ulviy (oliy, yuqori darajada) va sifliy (past, tuban darajada) xususiyatlarni menligida aks ettirgani sababli, kerak bo'lsa, anbiyo-yu, avliyo ham xatodan beri bo'lolmaydi deb hisoblaydi.

Tahlil va natijalar. O'z borlig'ini sirru asrorini anglagan odamda mehr, muhabbat, muruvvat, saxovat kuchli bo'ladi. "Rashahot" asarida Xoja Ahror Valiyning quyidagi baytni aytdanlari yozilgan:

Odami diyd astu boqiy po'st ast,
Diyd on boshad, ki diydi do'st ast[6:390].

Mazmuni:

Odamiy, ya'ni haqiqiy inson ko'zdir, boshqasi hammasi po'stdir,

Ko'z agar do'st ko'zi bo'lsa, shundagina ko'z bo'ladi.

Xoja Ahror bu bilan inson qalbi ko'z gusi bo'lgan ko'zdan faqat butun borliqqa do'stona nazar, mehr-muhabbat porlab tursagina, haqiqiy inson nomiga uyg'un bo'ladi, deydi.

Xoja Ahror insoniylik haqiqati degan masalaga maxsus e'tibor beradi. U – "Insoniylik haqiqati Haq subhonahudan boshqaga muhabbat va mayl

aralashmalaridan xoli bo'lish"[4:66] - ekanligini yozadi. Xoja Ahror muhabbat va mayl insonda Haqga ham g'ayrga ham bo'lishi mumkin deb, g'ayrning zotiga ibodat qilish g'ayrga muhabbat va mayl ekanligiga va g'ayrga mansub bo'lish va hoyu havas etagini ushlahligini ta'kid etadi. Xoja Ahror buni Qur'oni Karimdagi Josiya surasi, 23 oyat – "Ey Muhammad (s.a.v.)! Hoyu-havasini, orzu-havasini iloh qilib olgan kimsani ko'rdingiz-mi? U bila turib (Allohga emas, o'z nafsining orzusiga qul bo'lgani uchun ham) Alloh uni zalolatga qoldiradi!" asosida izohlaydi.

Nafs istagi ovqatlanish, kiyinish, zeb-ziynat, shahvat, mol-dunyo kabilarga me'yorida ortiq bog'lanish insonni tubanlashtiradi. U mol-dunyo, mansab, nafs istaklari uchun hayvoniy holatga tushadi. "Haqiqiy maqsad odamzot Haqdan boshqaga giriftor bo'lishdan xalos bo'lsin", "insoniylik haqiqati Haq subhonahudan boshqaga giriftor bo'lishdan ozod bo'lish"[4:66] ekanligini Xoja Ahror ta'kid etadi.

Xoja Ahrorning bu ta'riflaridan ma'lum bo'ladiki, u insonni ilohiy sifatli mavjudot deydi va shuning uchun ham ilohiylikka uyg'un harakatni unga mos deb hisoblaydi. Ilohiy sifatli inson butun borliqni Haq nazari bilan ko'radi va uni e'zozlaydi. Bunday insonni nazari baland, o'zi juda yuksak martabada bo'ladi.

Xoja Ahror ikki asari "Risoi Havroiyya" ("Hurlar haqidagi risola") va "Fiqroti Ahroriya" da ham insonga nisbatan quyidagi ruboiyni keltiradi:

Ey nusxai nomai ilohi, ki tui,
Ey oinai Jamoli Shohi, ki tui.
Berun zi tu nest, har chi dar olam hast,
Dar xud bitalab ,har on chi xohi, ki tui[4:24,4:69].

Mazmuni:

Ilohiy nomaning nusxasi sensan,
Shoh (Haq) Jamolining ko'z gusi sensan.
Nimaiki olamda bo'lsa, sendan tashqarida emas,
Nimani istasang, tashqiridan emas o'zingdan izla o'sha sensan.

Shuningdek Xoja Ahror shu mazmundagi "Man arafa nafsahu faqod arafa Robbahu" ("Kimki o'z nafsini tanisa, bas u (shundan so'ng) o'z Robbisini tanigay" hadisini ham keltiradi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytish mumkinki, Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini quradigan barkamol avlod – o'zini anglagan, o'z qadr-qimmatini, hayot mazmunini, jamiyatdagi o'rnini bilgan va shunga munosib amal qiladigan faol shaxsdir. U biror nafasini ham behudaga sarflamaydi, chunki u umrini shu nafaslardan iboratligini biladi. Uning hamsuhbati yaxshi odamlar bo'ladi, chunki yomon hamsuhbat umrni, vaqtni nobud etishi, behuda sarflash ekanligini anglaydi. O'zini anglagan inson barcha borliq, mavjudlik, xususan boshqa insonlarni ham qadru-qiyamatini biladi, chunki ularning har biri uning baxtiyor yashashi uchun lozimligini tushunadi. O'zini anglagan inson haqiqiy baxtiyordir.

Chunki u hirsu havas, nafsu havo, zulmu sitamdan pok. O'zini anglagan inson sevimlidir. Chunki u barchani sevadi, mehr-muhabbat bilan nazar qiladi, bu esa unga nisbatan boshqalarda ham shunday pok, go'zal tuyg'uni uyg'otadi. Bu muammolarni yechishda Xoja Ahror Valiyning inson, insoniylik, inson haqiqati g'oyalarini targ'ib etish yaxshi samara beradi.

- Xoja Ahror Valiy insonni "jam' etuvchi borliq" sifatida tavsiflagan.

- U insoniylik haqiqati deganda haqiqiy bandalik, ya'ni faqat Haq, asl bilan bog'lanib, o'shanga mos uyg'un yashashni tushungan.

- U insoniy haqiqat uchun inson muhabbat va mayl – ixtiyori to'la ilohiy bo'lishini zarur degan.

- U insoniylik haqiqatga yetishda nafs tarbiyasi, qalb tasfiyasining o'rni muhimligini ta'kidlagan.

- Xoja Ahror Valiyning insoniy haqiqat haqidagi g'oyasini hozirgi kunda komil inson tarbiyasi jarayonida qo'llash yaxshi samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Navro'zova G.N., Raxmatova X.X. Naqshbandiya tushunchalari genezisi. – Buxoro: «Buxoro» 2010. 150 b.
2. Rahmatova X. Xoji Ahror Valiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari. – Toshkent: «Adib» nashriyoti, 2014. 128 b.
3. Raxmatova. X. Xoja Ahror Valiy ma'naviy merosida murosa falsafasiga doir g'oyalar tahlili. – Buxoro: Sadridin Salim Buxoriy, 2023. 232 b.
4. Xoja Ubaydulloh Ahror. Tabarruk risolalar. Toshkent: Adolat, 2004. 386 b.
5. Boboxonov Sh., Mansur A. Naqshbandiyya tariqatiga oid qo'lyozmalar fihrisi. T.: Movarounnahr, 1993. 127 b.
6. Faxruddin Ali Safiy. Rashahotu aynil-hayot («Obihayot tomchilari»): tarixiy-ma'rifiy asar / Tabdil qiluvchilar, nashrga tayyorlovchilar: M.Hasaniy, B.Umrzoq. Mas'ul muharrir: B.Umrzoq (O'zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti). – T.: Abu Ali Ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2004. – 536 b.
7. Yunusova G.S. Inson borlig'ining tasavvufiy talqini. Bosma Toshkent islom universiteti ilmiy-tahliliy axborot jurnali. 2012. №3. 23-25 b.
8. Shayx Sayyid Abdulqodir Giyloniy. SIRRUL ASROR. Maktubot. T.: Movarounnahr, 2005. 224 bet.

| | |
|--|----|
| R.Gubaydullin, A.Yo'lchiyev, M.Alimuxamedov..... | 92 |
|--|----|

BIOLOGIYA FANLARI

03.00.00 - БИОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

BIOLOGICAL SCIENCES

| | |
|--|-----|
| O'zbekistonlik bemorlarda aniqlangan sars-cov-2 genomidagi eng aniq, noyob aminokislota mutatsiyalari. | |
| M.Ayubov, M.Mirzakhmedov, A.Yusupov, B.Nosirov, A. Abdukarimov, Z. Buriev, I.Abduraxmonov..... | 97 |
| N-1 polifenolining qon tomir silliq muskul qisqarish faolligiga relaksant ta'sirini tavsiflash. | |
| G. Mirzaalimova, I.Jumayev, A.Zaynabiddinov, R.Maxmudov..... | 104 |
| Ko'hitang botanik-geografik rayoni florasining hayotiy shakllari. | |
| D.Tajetdinova, A.Ibragimova, B.Karimov..... | 108 |
| Vinkanidin xlor gidratning aorta silliq muskul hujayrasi Ca²⁺L kanallari modulyatsiyasidagi roli. | |
| E. Ibragimov, A.Zaripov, P.Usmonov, I.Jumayev, S.Sobirov, Sh.Adizov..... | 113 |
| Achchiq qovun (Momordica Charantia L.) ning urug' unuvchanligini darajasini yaxshilash, unuvchanlikka sho'rlanish hamda qurg'oqchilikning ta'siri. | |
| J.Turg'unov, N.Naraliyeva..... | 117 |
| Qurg'oqchilik sharoitida ayrim g'o'za genotiplarining biokimyoviy tahlili. | |
| R.Muxammadaliyev, A.Makamov, N.Xusenov, J.Norbekov, I.Normamatov, U.Boqilov, Sh.Mamanazarov..... | 123 |
| Turli yosh va zotdagi quyonlar spermasi tarkibidagi spermatozoidlarning rezistentlik ko'rsatkichlari. | |
| B.Ibragimov, X.Yunusov, B.Djambilov..... | 129 |
| Inheritance indicators in first-generation F₁ hybrids of cotton based on qualitative and quantitative traits. | |
| A.Safiullina..... | 132 |
| Gidroponika usulida yetishtiriladigan ozuqalar biomassasiga haroratning ta'siri. | |
| M.Abdisalomova, M.Kuziyev..... | 137 |
| Implementation of baromembrane processes during the separation and concentration of the juices. | |
| G.Deinychenko, D.Dmytrevskyi, V.Chervonyi, D.Horielkov..... | 142 |
| "O'zbekiston milliy gerbariysi" (Tash) noyob ilmiy ob'ektida saqlanayotgan O'zbekiston hududida tarqalgan Ziziphora L. Turkumi turlarining tahlili. | |
| N.Naraliyeva, S.Mirzayeva..... | 148 |
| Эффективность новых инсектицидов против термитов. | |
| M. Хашимова, З.Ганиева, К.Рустамов, Г.Мирзаева, В.Ахмедов, М.Мансурходжаева..... | 154 |

FALSAFA FANLARI

09.00.00 - ФИЛОСОФСКИЕ НАУКИ

PHILOSOPHICAL SCIENCES

| | |
|--|-----|
| Somoniylar davrida falsafiy qarashlarning o'ziga xos jihatlari. | |
| N.Dehkanov, M.To'xtasinov..... | 158 |
| Boborahim Mashrabning tasavvufiy qarashlarida nur tushunchasining mazmun mohiyati xususida. | |
| N.Badriddinova..... | 161 |
| Barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini oshirish masalalarini falsafiy tahlili. | |
| L.Anvarova..... | 164 |
| Xoja Ahror ta'limotida inson mohiyati: qiyosiy-falsafiy tahlil. | |
| G.Navro'zova..... | 168 |
| Siyosiy e'tiqod tizimi va uning falsafiy talqini . | |
| R.Shernazarov..... | 171 |
| O'zbekistonda imkoniyati cheklangan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish tizimi transformatsiyasi. | |
| Sh.Ismailov..... | 175 |
| Virtual reallik texnologiyalarining jamiyat ijtimoiy-madaniy hayotiga ta'siri. | |
| A.Sanaqulov..... | 180 |
| Jamiyatning ma'naviy yuksalishida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning istiqboldagi vazifalari. | |
| A.Raximov..... | 183 |
| Yoshlar tafakkurida harbiy qahramonlik ideallarini shakllantirishda ta'lim-tarbiyaning istiqboldagi vazifalari. | |
| B.Pulatonov..... | 187 |
| Ehtiyojmand toifadagi aholi qatlamlariga ko'rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlarni samarali tashkil etishda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va xorij tajribasi. | |
| B.Tolipov..... | 191 |
| Yoshlar orasida jinoyatchilikni oldini olishning jahon tajribasi. | |
| U.Bo'ranova..... | 196 |
| Turmush tarzini belgilovchi omillarning ijtimoiy-falsafiy tahlili. | |
| Z.Boymurodov..... | 199 |